



## “Muxbir sudi” pyesasi: hayotning huquqiy tahlili

**Yuldasheva Munisa Raxmanovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

[muhlisayevamuhlisha@gmail.com](mailto:muhlisayevamuhlisha@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada G‘afur G‘ulomning “Muxbir sudi” pyesasi bugungi kun asosida huquqiy tahlil etiladi. Asarda tasvirlangan voqea va qahramonlar orqali poraxo‘rlik, zo‘ravonlik, ko‘pxotinlilik hamda mansab vakolatini suiiste‘mol qilish kabi ijtimoiy xavfli qilmishlar huquqiy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish zarurligi ta‘kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** pyesa, ijtimoiy, jamiyat, poraxo‘rlik, pora olish, pora berish, pora olish va berishda vositachilik, nikoh, oila, er-xotin, zo‘ravonlik.

Badiiy asarlar inson hayotida beqiyos o‘ringa ega. Uni o‘qir ekan inson hayotiy tajribalarga ega bo‘ladi hamda hayoti davomida ushbu asardan olgan xulosasi asosida bunday xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka harakat qiladi. G‘afur G‘ulomning ijodida bunday asarlar talaygina. Ularni o‘qish hamda tahlil qilish orqali huquqshunos muammoli vaziyatlarni huquqiy tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantira oladi. Ana shunday asarlardan biri G‘afur G‘ulomning “Muxbir sudi” pyesasi bo‘lib, u 1928-yilda yozilgan. Pyesada Tursunqul ismli qishloq ijroqo‘miga doir sud ishi ko‘rib chiqiladi. Ushbu sud majlisiga qishloqning muallimi tomonidan qishloqda bo‘layotgan nohaqlik hamda adolatsizliklar haqidagi gazetaga bergan xabari sabab bo‘ladi. Hamma zamonlarda haqiqat hamda adolat uchun kurashganlar to‘g‘ri qabul qilinavermagan, biroq shunga qaramay, haqiqatni aytishdan, adolatni



ta`minlashdan to`xtab qolmaslik lozim. Shu orqali jamiyatda mavjud illatlarni bartaraf etishga muyassar bo`lamiz. G`afur G`ulom ushbu pyesada ana shunday illatlarni barham etishni ta`kidlashga harakat qilgan. Pyesada sud ishi besh kishidan iborat sud hay`ati tomonidan ko`riladi, unda sud raisi, qishloq ijroqo`mi (raisi), muxbir, bir nechta guvohlar, shuningdek qishloq ijroqo`mining turmush o`rtog`i kabilar ishtirok etadilar. Ushbu pyesani huquqiy tahlil qilar ekanmiz, adib tomonidan keltirilgan muammoli vaziyatlar nafaqat o`sha zamon uchun, balki bugun uchun ham dolzarb ekanligining guvohi bo`lamiz. Ushbu pyesada Tursunqul ismli shaxsning sud majlisida sudlanuvchi tarzida ishtirok etishiga qanday sabablar asos bo`ldi? Keling, asarni ichidagi voqea va hodisalarni huquqiy jihatdan tahlil qilsak.

(Rais)

... Qarshingizda qishloqning muallimi, shu muxbir,  
Nima ko`rsa, bilganin gazetga beradur.  
Yozibdirki, bizning qishloq ijroqo`mi Tursunqul  
Kecha-kunduz ulov chopib, xalqdan yig`ar pora, pul.  
...To`rt xotinli, ko`p ichadir, elning g`amini yemas.  
Hozirgi so`z javobgarimiz Tursunqulga berilur...

(Xotin)

Biz uch burdak mushtiparning boshimizda har mahal,  
Bir kun ochmiz, bir kun to`qmiz, «bolam-bo`tam» demaydir,  
«U yo`q, bu yo`q», desang — darrov o`lguncha do`pposlaydir.  
Arimaydi, kunda-kunda mast bo`lib ichgani ichgan.  
Bir vaqt bunday iljaymaydi, peshanasi tirishgan...

Keltirilganidek, Tursunqul obrazi poraxo`r, zo`ravon, xotinboz, xalqning dardiga quloq solmay aysh-ishratga berilgan, shaxs sifatida gavdalantirilgan. U vaqtini uloq choptirish bilan o`tkazishi, xalqdan pora olishi kabi muammoli



masalalar ushbu sud majlisida ko'tariladi. Ushbu holatlarni bugungi kun bilan birma-bir huquqiy tahlil qilsak.

**1-holat:** Pyesada qishloq oqsoqolining, o'z mansab vazifasini bajarish evaziga qishloqdoshlaridan pul so'ragani aks ettirilgan. Poraxo'rlik-davlat hamda jamiyatning inqirozga yuz tutishiga sabab bo'luvchi asoslardan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda bunday illatga qarshi kurashish, uning oldini olish, unga chek qo'yish maqsadida bir qancha qonun hamda qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XV bobida boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar keltirilgan bo'lib, pora olish; pora berish; pora olish va berishda vositachilik qilish kabi bir qancha ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun jazo choralari belgilab qo'yilgan. Poraxo'rlik uchun javobgarlik, unga qarshi kurashishlar nima uchun kuchaytirilgan degan savolga javobimiz: Poraxo'rlik-jamiyatda adolat, tenglik, halollik ustun bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Sog'lom raqobatning so'nishiga, xalqning davlat organlari va tashkilotlariga nisbatan ishonchining yo'qolishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun ham u barcha davrlarda va davlatlarda ijtimoiy illat sifatida qoralangan va unga qarshi kurashilishiga sababchi bo'lgan.

**2-holat:** Xotinbozlik. Pyesada Tursunqul maishatparastlikka berilgan xotinboz obrazida gavalantirilgan. Oila muqaddas dargoh. Oilani kichik Vatan deyilar. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga ko'ra, "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi."

1966-yil qabul qilingan "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktning 23-moddasida keltirilganidek, "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini hisoblanadi hamda jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinish huquqiga ega". Ushbu normalar Oila kodeksida ham o'z tasdig'ini topadi. Yuqorida keltirilgan normalarni buzgan holda ko'p xotimli bo'lganlik, ya'ni



umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-moddasiga ko'ra javobgarlik belgilangan.

**3-holat.** Zo'ravonlik. Tursunqul turmushidagi ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni amalga oshiradi. Ayollar oiladagi arzimagan muammolar uchun ham do'pposlanadi. U do'pposlash orqali ayollariga nisbatan ham jismoniy, ham ruhiy zo'ravonliklarni sodir etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga ko'ra, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. **“Zo'ravonlik** — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)” deyiladi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonunda. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59<sup>2</sup>-moddasida hamda Jinoyat kodeksining 126<sup>1</sup>-moddalarida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun javobgarlik choralari belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilsak, Tursunqul obrazi orqali G'afur G'ulom poraxo'rlik, zo'ravonlik, mansab vakolatini suiste'mol qilish kabi bir qancha ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik muqarrar ekanligini, ushbu qilmishlar uchun ertami-kechmi har qanday shaxs sud oldida javob berishini tasvirlab bergan. Ushbu pyesada keltirilgan muammolarga huquq va qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali barham berishimiz mumkin. Ana shundagina, jamiyatda adolat, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga hurmat va ishonch, sog'lom raqobat, tartib kabilarning o'rnatilishi va mustahkamlanishiga erishamiz!



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'afur G'ulom „Muxbir sudi“ pyesasi G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1928;
2. “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi xalqaro pakt <https://lex.uz/docs/-2702116>;
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>;
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/-111453>;
5. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks <https://lex.uz/ru/docs/-97664>;
6. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonun <https://lex.uz/docs/-4494709>.